

Annotatsiya.

Maqolada Mo'g'ulistondan keltirilgan "Bayad" zotli qo'ylarning mamlakatimiz, janubiy Surxon hududi iqlim sharoitiga moslashuvchanlik va chidamlilik xususiyatlarini o'rganish tahlil va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar.

Ontogenez, mahsuldorlik, cho'l, yarim cho'l, kontinental, saksovul, izen, teresken, cho'g'on, quyrovuq, naslchilik, seleksiya.

Abstract.

The article presents the results and conclusions of the study of the adaptability and endurance characteristics of Bayad sheep brought from Mongolia to the climatic conditions of the southern Surkhan region of our country.

Key words:

Ontogeny, productivity, desert and semi-desert, continental, saxovul, izen, teresken, chugon, kuruvuk, breeding, selection.



JANUBIY SURXON

HUDUDI EKOLOGIK
IQLIM SHAROITIDA
KO‘PAYTIRILAYOTGAN
MO‘G‘ULISTON
QO‘YLARINING
MOSLASHUVCHANLIK
XUSUSIYATLARI

**Omonov Mamatqobil
Ismoilovich,**
biologiya fanlari doktori

**Abdunazarov Chori
Xudoynazarovich,**
TerDU mustaqil
tadqiqotchisi

Kirish.

Keyingi yillarda butun yer shari bo'ylab sodir bo'layotgan ekologik iqlim o'zgarishlar nafaqat dunyo mamlakatlari balki, O'zbekistonda ham yaqqol kuzatilmoqda. Xususan, qurg'oqchilik hukmronlik qilayotgan bir davrda cho'l hududlari ekstremal sharoitda urchitiluvchi qo'y zotlari genofondini saqlash, ko'paytirish va mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatayotganligi aholi qatlamini sifatli go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Mamlakatimizda qo'ychilik chorvachilikning yaylov sharoitida rivojlanuvchi asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanib, sanoatni qimmatbaho teri va jun xom-ashyosi bilan ta'minlash bilan bir qatorda, oziq-ovqat xavfsizligi, aholi bandligi va turmush tarzini oshirishda muhim hisoblanadi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mamlakatimizda qo'ychilikni rivojlantirish borasida bir qator Farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2025-yil 30-yanvardagi "Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-15 Farmonda yaylovdan foydalanuvchilar tomonidan istiqbolli cho'l ozuqabop o'simlik turlari: saksovul, izen, teresken, cho'g'on, quyrovuq va boshqa turdagi o'simliklarni ekish orqali cho'lda ozuqa ishlab chiqarishni intensivlashtirish dolzarb vazifalar sifatida belgilab berildi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-25-iyun kunlari Mo'g'ulistonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlar doirasida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohaslarida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida "Mo'g'ulistonga oliy darajadagi tashrif davomida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohaslarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-225-son qarori qabul qilindi.²

Ma'lumki, Mo'g'uliston yirik va mayda shoxli chorva hayvonlarini boqish, ko'paytirish, go'sht, jun, teri mahsulotlari ishlab chiqarishda dunyodagi yetakchi mamlakatlar sirasiga kiradi. Mo'g'uliston tajribasi asosida mamlakatimizda chorvachilikni yanada rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Mazkur qaror ikki mamlakat o'rtasida hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbe-

kiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-120-sonli qarori hamda "Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlarni ishga solish hamda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar"ga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda 2024-2026 yillarda Mongoliyadan 20 ming bosh go'sht va jun yo'nalishidagi qo'y-echkilarni olib kelish vazifasi belgilab berildi.³

O'zbekiston va Mug'uliston Prezidentlari kelishuviga asosan mamlakatimiz hududlariga 100,4 ming bosh "Bayad" zotli qo'ylar olib kelinishi, qo'ylarning yangi zotlarini ko'paytirish yo'nalishida istiqbolli loyihalar ajratildi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonga "Bayad" zotli qo'ylar 2024-yildan boshlab, asosan go'sht eksporti salohiyatini rivojlantirish maqsadida Mo'g'ulistondan Navoiy va Buxoro viloyatlariga keltirilgan edi.

Davlat rahbarining 2025-yil 17-iyuldagi PQ 225-son qarorida keyingi 5 yilda Mo'g'ulistondan keltirilgan qo'y-echkilar sonini 1,0 mln boshga yetkazish, hududlar kesimida Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida ko'paytirilishi nazarda tutilgan.

Mo'g'ulistondan olib kelingan yirik va mayda shoxli chorva hayvonlarini parvarishlash, ko'paytirish, go'sht, jun, teri mahsulotlari ishlab chiqarish borasida boshlangan loyihalar chorva naschiligi va seleksiya ishlarini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati bilan ahamiyatlidir.

Vatanimizga Mo'g'ulistondan keltirilgan "Bayad" zotli qo'ylar eng qadimiy qo'y zotidan biri hisoblanib, XX asr oxirlarida Mo'g'ulistonda urchitiluvchi qozoqi dumbali qo'ylarini seleksiyalash yo'l bilan yaratilgan. Ular noqulay iqlim sharoitiga chidamliligi, tez moslashuvchanligi, tana tuzilishi mustahkamligi bilan tavsiflanadi.⁴

"Bayad" zotli qo'ylar o'ziga xos foydali xo'jalik xususiyatlariga ega bo'lib, asosan go'sht va yog' yo'nalishli, yil davomida yaylov sharoitida boqishga yaxshi moslashgan. Tashqi ko'rinishi yirik, tana tuzilishi mujassam, tumshuqlari ingichka, oyoqlari yaxshi rivojlangan, mustahkam konstitutsiya tipiga xos. Qo'ylar oq, qo'ng'ir, ko'k rangli va ola boshli tepal bo'ladi, dumlari yog'li. Qo'ylarning tirik vazni 70-80 kg, qo'chqorlari 100-120 kg. Go'sht so'yim chiqimi tirik vazniga nisbatan 60 foizni tashkil etadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-15 son Farmoni. Lex.uz.

2 O'zbekis ovqat sohaslarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-225-son qarori. Lex.uz.

3 O'zb rivojlantirish bo'yicha 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-120-sonli qarori. Lex.uz.

4 Mamatov B.S., Turanov M.H. Mo'g'ulistondan keltirilgan "Bayad" zotli qo'ylarning moslashuvchanlik va ayrim mahsuldorlik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha birlamchi mulohazalar. Chorvachilik va naschilik ishi. № 1, 2025. 71-74 b.



Rasm.1. Mo'g'ulistonning "Bayad" zotli qo'ylari

"Bayad" zotli qo'ylar bir qator afzalliklarga ega, qo'zilar sof zotli mahalliy qo'zilarga nisbatan yuqori vaznga ega. Tez yetiluvchan hamda genetik salohiyatidan foydalanib, yuqori mahsuldor duragay zotlar yaratish imkoniyati katta. Ularning juni uzun, oq rangda, sut mahsuldorlik sifati yaxshi, suti oqsil va biologik faol moddalarga boy.

Mo'g'ulistonning iqlim sharoiti tahlillarga ko'ra quruq, keskin kontinental bo'lib, qishi sovuq, kam qorli, yanvar oyida o'rtacha -10° , -35° , yozi issiq iyul oyi o'rtacha harorati $+18+26^{\circ}$ (eng yuqori $+40^{\circ}$), yillik yog'in miqdori 100–300 mm, tog'larda 500 mm tashkil etadi. Hududining shimoliy va shimoli-sharq dasht, janubiy va janubi-sharqi chala cho'l va cho'llardan iborat bo'lib, chala cho'llarida ko'proq saksovol uchraydi.

Ma'lumki, hayvonlar moslashuvi biror bir hayvonlar populyatsiyasining yashashi va rejali ko'payishi uchun atrof muhitga moslashishidir. Bu jarayondagi o'zgarishlarga organizmdagi fiziologik o'zgarishlar, hayvonlarning muayyan hududda oziqlantirish sharoiti, shuningdek etologik o'zgarishlar muhim hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonga "Bayad" zotli qo'ylarning keltirilishida ikki mamlakat iqlim sharoiti o'rtasidagi o'xshashlik va zotning keskin iqlim sharoitlariga nisbatan tez va yaxshi moslashishi inobatga olingan. Hozirgi kunda Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti seleksioner olimlari tomonidan "Bayad" zotli qo'ylar mamlakatimizning Qizilqum cho'l iqlim sharoitlariga moslashish xususiyatlari o'rganilmoqda.

"Bayad" zotli qo'ylar sutning tarkibi energetik jihatdan yuqoriligini hisobga olsak, qo'ylardan olingan qo'zilar jadal o'sish ko'rsatkichlarini namoyon qiladi.⁵

"Bayad" zotli qo'ylar tabiatan qurg'oqchilikka va kam o'tloqli yaylovlarda oziqlanishga moslashganligi va ularning mustahkam tana tuzilish, yog'li dumi og'ir iqlim sharoitida energiya zahirasi hisoblanishi kabi biologik xususiyatlaridan kelib chiqib, Surxondaryo viloyati hududlari ekologik iqlim sharoitlariga moslashtirish va chidamlilik xususiyatlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Xususan, o'tgan yili Mo'g'ulistondan Surxondaryo viloyatiga jami 8031 bosh "Bayad" zotli qo'ylar keltirilib, Uzun tumani "Shoxrux Abduraxmon" f/x 210 bosh, "Baxrombek-Xasan" f/x 425 bosh, Denov tumani "Ramziddin Baraka chorvalari MChJ xo'jaligiga 1475 bosh, "Dashtiboychorvador Denov" f/x 710 bosh, "Sarchashma barakat" f/x 1340 bosh, "G'alla urug'chilik" xo'jaligi 1986 bosh, "Janonabonu" f/x 504 bosh, Sherobod tumani "Abduraxmonov" f/x 354 bosh, Qumqo'rg'on tumani "Normengli Omonqulov" f/x 170 bosh, Muzrabot tumani "Umarbek Usmon Taraqqiyot MChJ 857 bosh taqsimlandi.

⁵ Xujanova M.M., Xatamov A.X. Qizilqum sharoitida "Bayad" zotli qo'ylar sutining kimyoviy tarkibi. Chorvachilik va naslchilik ishi. Maxsus son 1, 2025. 81-83 b.

Viloyatimizga keltirilgan “Bayad” zotli qo‘ylar dastlab soha mutaxassislari tomonidan mahsuldorligi, sog‘lomligi, yuqumli kasalliklar bo‘yicha veterinariya tekshiruvidan o‘tkazildi va ayrim yuqumli kasalliklarga qarshi emlandi.

Biz o‘z tadqiqotlarimizni Mo‘g‘uliston va O‘zbekiston iqlim sharoiti o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlikdan kelib chiqib, “Bayad” zotli qo‘ylarning Surxondaryo viloyati janubiy va shimoliy hududlar ekologik iqlim sharoiti, tog‘ yaylov, adir, yarim cho‘l hududi yaylovlarida boqishga moslashuvchanlik va chidamlilik xususiyatlarini o‘rganishga qaratdik.

Ma‘lumki, Surxon vohasi janubiy hududi yoz oylari jazirama issiq, quruq, garmsel, qishlari quruq sovuq, qor va yog‘in miqdori kamligi, adir va cho‘llarida ozuqabop o‘simliklar kamligi, degedratsiyaga uchragan va sho‘r tuproqli maydoni ko‘pligi, o‘simliklar xilma-xilligi va yaylov hosildorligi pastligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, viloyatning shimoliy hududi iqlim sharoit janubiy iqlim sharoitidan keskin farq qilishi ya‘ni, sernam, yomg‘irli va namlik yuqoriligi yaylovlari qo‘ylarni haydab boqishga qulayligi, ozuqabop o‘simliklar miqdori ko‘pligi va suv manbai yaxshiligi bilan farqlanadi.

Biz dastlab Mo‘g‘uliston va O‘zbekiston (Surxondaryo misolida) davlatlari iqlim sharoitini tahlil

qildik. 1-jadval.

Ko‘rsatkichlar	Mo‘g‘uliston (Markaziy va janubiy aymaklar)	Surxondaryo viloyati		
		Viloyat bo‘yicha o‘rtacha	Janubiy hududi (Muzrabot, Sherobod)	Shimoliy hududi (Qumqo‘rg‘on, Denov, Uzun)
Iqlimi holati	O‘rta-kontinental, keskin ifodalangan	Quruq, keskin kontinental ifodalangan	Quruq, keskin kontinental	O‘rtacha quruq, seryog‘in
Qish faslining o‘rtacha harorat	-20° C dan -35° C gacha	0° C dan 4,7° C gacha	0° C dan -3,6° C gacha	0° C dan -5,7° C gacha
Yoz faslining o‘rtacha harorat	+28° C dan +38° C gacha	+37° C dan +45° C gacha	+38° C dan +46° C gacha	+34° C dan +38° C gacha
Yillik o‘rtacha harorat	-1° C dan +5° C gacha	+12° C dan +17° C gacha	+12° C dan +19° C gacha	+10° C dan +15° C gacha
Yillik o‘rtacha yog‘ingarchilik miqdori	100-300 mm	70-180 mm	60-110 mm	110-270 mm
Qor yog‘ishi va saqlanishi	Barqaror, taxminan 4 oy	Kam	Kam, yoki yo‘q	o‘rtacha
Namlik miqdori	Past (40-55%)	Juda past (17-38%)	Juda past (15- 42%)	o‘rtacha (36-58%)
Shamol holati va tezligi	Sovuq, tez-tez	Issiq shamollar (garmsel)	Issiq shamollar (garmsel)	Yoqimli, o‘rtacha shabada
Yaylov holati, tipi	Tog‘oldi va yarim cho‘l	Tog‘ oldi, cho‘l, yarim cho‘l	Tog‘ oldi, cho‘l, yarim cho‘l	Tog‘, yaylov, adir va yarim cho‘l
Yayovlardan foydalanish muddatlari	Taxminan 180-220 kun	Taxminan 280-350 kun	Taxminan 180-355 kun	Taxminan 180-345 kun



Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyati hududining ekologik iqlim sharoiti Mo'g'ulistonning iqlim sharoitida o'xshashlik jihatlari yaqinligi, shu bilan bir qatorda viloyatning shimoliy hududi iqlim sharoitida keskin farqlar yuqori emasligidan dalolat beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Surxondaryo viloyati janubiy va shimoliy hududlar ekologik iqlim sharoitiga moslashuvchanligi, chidamliligi, hayotchanligi, o'sishi va rivojlanishi, mahsuldorligi, nasl ko'rsatkichlarini qiyosiy baholash, shu sharoitda oziqlantirish, saqlash va parvarishlash jarayonlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi:

“Bayad” zotli qo'ylarning Surxondaryo viloyati janubiy va shimoliy ekologik iqlim sharoitiga moslashuvchanlik, chidamlilik xususiyatlari va mahsuldorlik ko'rsatkichlarini taqqoslash.

Tadqiqot vazifalar:

- “Bayad” zotli qo'ylarning Surxon vohasi janubiy issiq va quruq iqlim (Muzrabot, Sherobod) va shimoliy sernam va yomg'irli (Denov, Uzun) hududlari ekologik iqlim sharoitiga moslashish va chidamlilik xususiyatlarini o'rganish;

- “Bayad” zotli qo'ylarning Surxon vohasi tog', cho'l va yarim cho'l hududlari yaylov sharoitida haydab boqish va yem-xashak o'simliklari iste'moli xususiyatlarini o'rganish;

- “Bayad” zotli qo'ylar naslining hudud ekologik iqlim sharoitiga moslashishi, hayotchanligi, ontogenezi, tirik vazni, eksteryeri va tana o'lchamlarini taqqoslab o'rganish;

- “Bayad” zotli qo'ylar morfo-fiziologik xususiyatlari, o'sishi va rivojlanishi, mahsuldorligi, serpushtililigi va nasl ko'rsatkichlarini tadqiqot hududlari kesimida qiyosiy baholash.

Tadqiqot obyekti va usullari.

Tadqiqotlar Muzrabot tumani “Umarbek Usmon

taraqqiyot” MCHJ, Sherobod tumani “Abduraxmonov” f/x, Qumqo'rg'on tumani “Normengli Omonqulov” va Denov tumani “Janonabonu” f/x, Uzun tumani “Baxrombek-Xasan” f/x, “Bayad” zotli qo'ylar, qo'zilar, jun mahsuloti.

Tajriba va nazorat guruhlarining shakllantirilishi.

1-guruh. Surxon vohasining janubiy issiq va quruq iqlim sharoitida ko'paytirilayotgan Muzrabot t. “Umarbek Usmon taraqqiyot” MCHJdan 857 bosh, Sherobod t. “Abduraxmonov” MCHJdan -354 bosh “Bayad” zotli qo'y otarlari olindi.

2-guruh. Surxon vohaning shimoliy sernam va yomg'irli sharoitida ko'paytirilayotgan Qumqo'rg'on tumani “Normengli Omonqulov” f/x 170 bosh, Denov tumani “Janonabonu” f/x 504 bosh, Uzun tumani “Baxrombek-Xasan” fermer xo'jaligidan -425 bosh “Bayad” zotli qo'y otarlari olindi.

Eksteryer o'lchamlari (yag'rin balandligi, gavdaning qiya uzunligi, ko'krak chuqurligi, ko'krak kengligi va ko'krak aylanasi, poycha aylanasi) o'lchov tayog'i va lentasi orqali o'lchanib, tana tuzilish indeksleri zootexniya amaliyoti bo'yicha baholandi.

Dastlab, Mo'g'ulistondan Muzrabot tumani “Umarbek Usmon taraqqiyot” MCHJ (857 bosh), Sherobod tumani “Abduraxmonov” MCHJ (354 bosh), Qumqo'rg'on tumani “Normengli Omonqulov” f/x 170 bosh, Denov tumani “Janonabonu” f/x (504 bosh), Uzun tumani “Baxrombek-Xasan” fermer xo'jaligi (425 bosh) “Bayad” zotli qo'ylar eksteryer ko'rsatkichlari bo'yicha baholandi va bonitirovkadan o'tkazilib, tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi.

Bizning tadqiqotlarimiz dastlabki bosqichida Surxon vohasi janubiy va shimoliy hududlari ekologik iqlim sharoitida ko'paytirilayotgan “Bayad” zotli qo'ylar morfo-fiziologik xususiyatlari, o'sishi va rivojlanishi, mahsuldorligi va nasl ko'rsatkichlarini quyidagi ko'rsatkichlar asosida olib bordik.

Surxon vohasi janubiy va shimoliy hududlari ekologik iqlim sharoitida ko'paytirilayotgan "Bayad" zotli qo'ylar va ular naslini baholash ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Baholash
Fiziologik holati (kasalliklarga chidamliligi va emlashdan o'tganligi)	Yoshi, sog'lomligi (veterinar mutaxassisi xulosasi)
Konstitutsiyasi (tana tuzilishi va rivojlanishi bo'yicha)	Mustahkam, pishiq, qo'pol va nozik
Mahsuldorligi	Tirik vazni, jun sifati va morofologik tuzilishi
Eksteryer ko'rsatkichlari	Tana mujassamligi (o'lchami va tana indeklari)
Serpustlilik xususiyatlari	Har 100 bosh ona sovliqlar nasl berishi
Naslini baholash (bonitirovkalash)	Qo'zilar tirik vazni, konstitutsiyasi, rang, jinsi, sog'lomligi, hayotchanligi.
Saqlash va oziqlantirish	Yilning barcha fasllarida yaylov sharoitida boqish, yaylov ozuqalari iste'moli va ko'nikish xususiyatlari
Moslashuvchanligi	Sog'lomligi, ontogenezi, eksteryer ko'rsatkichlari turli yoshda baholash kabi o'rganish tahlillari asosida vohaning ekologik iqlim sharoitlariga chidamliligi, hayotchanligi va mahsuldorligini taqqoslash



Rasm 2. Surxondaryo iqlim sharoitida ko'paytirilayotgan "Bayad" zotli sovliq duragay qo'zilar bilan.



Rasm.3. Surxonadaryo iqlim sharoitida ko'paytirilayotgan "Bayad" zotli qo'y larni saqlash va dala sharoitida boqish.

"Bayad" zotli sovliqlardan olingan to'1 natijalari tahlil shuni ko'rsatadiki, 2025-yil kuz oyida Surxonadaryo viloyatiga Mo'g'ilistondan keltirilgan "Bayad" zotli qo'y larni jaydari qo'y larni bilan qochirilishi tufayli ularning iqlimga va yaylov sharoitiga to'laqonli moslasha olmaganligi bois serpushtlilik ko'rsatkichi ancha past bo'ldi.

Hayvonlarning hayoti davomida yetarli semizlik darajasida saqlash ularning nafaqat fiziologik balki, mahsuldorlik xususiyatlarini yuqori darajada yuzaga chiqishini ta'minlaydi.⁶

Qo'zilarining tirik vazni va tana indeklari paratipik omillar (oziqlantirish, asrash) ta'sirida ma'lum darajada o'zgarishi kuzatildi. Duragay qo'zilar tirik vazni, o'sish va rivojlanish, eksteryer ko'rsatkichlari, konstitutsiya tipi kabi muhim zootexnikaviy jihatlari turli xil yoshida o'rganilib borilmoqda.

Bir xil sharoitda qo'zilarining tirik vazni hamda tana indeklari o'rtasida sezilarli farq kuzatilmadi.

"Bayad" zotli qo'y larni Qumqo'rg'on tumani "Normengli Omonqulov" f/x, 170 bosh, Denov tumani "Janonabonu" f/x 504 bosh, Uzun tumani "Baxrombek-Xasan" fermer xo'jaligidan 425 bosh qo'y larni qish faslida betalafat chiqarildi. Sovliqlari jaydari zot qo'chqorlar bilan qochirilib duragay qo'zilar olindi.

O'rganishlardan ma'lumki, ushbu zot qo'y larni oziqlantirish, asrash (saqlash) alohida ahamiyatlidir. Jumladan, "Bayad" zotli qo'y larni oziqlantirishda yaylov sharoitida bahor-kuzgi yaylovlardan foydalanish lozim, lekin kunning issiq vaqtlarida o'tlatishni to'xtatib turish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bobotog' tog'i va uning yonbag'irlarida eng ko'p tarqalgan o'simliklari rang, qo'ng'irbosh, bug'doyiq, qo'ziquloq, boshqalar bo'lib, ular no'xatak, qashqarbeda,

sariqbeda, yaltirbosh, ismaloq, yovvoyi arpa, cho'l yalpizi, kiyiko't, kakliko't, sigirquyruq kabi o'tlar bilan birga o'sadi. Bu yerlardan pichan tayyorlash uchun ham foydalaniladi. Ushbu hududlarda barcha turdagi qo'y larni boqish va yem-xashak uchun foydalaniladi.⁷

Xulosa.

Mongoliyadan keltirilgan "Bayad" zotli qo'y larning Surxon vohasi janubiy issiq va quruq iqlim (Muzrabot, Sherobod) va shimoliy sernam va yomg'irli (Qumqo'rg'on, Denov, Uzun) xududlari yekologik iqlim sharoitiga moslashish va chidamlilik xususiyatlari o'rganishga qaratilgan dastlabki tadqiqotlarimiz yilning kuz va qish faslida amalga oshirilganligidan kelib chiqib, janubiy hududlarga nisbatan shimoliy hududlardagi boqilayotgan "Bayad" zotli sovliqlar va ular naslining o'sishi va rivojlanishida ijobiy fiziologik o'zgarishlar kuzatilishi barobarida ularni sof holda boqish uchun soyali joylar, salqin suv ta'minoti va maxsus parvarish talab qilinadi.

6 Xatamov A.X. Tirik vazn mahsuldorlikni belgilovchi asosiy ko'rsatkich. Chovvachilik va naslchilik ishi. №1, 2025. 53-54 b.

7 Omonov M.I. Bobotog' adir hududining yem-xashak o'simliklari: xilma-xilligi, biologiyasi va ahamiyati. Monografiya. T.: 2025. – 102 bet.